



NAMANGAN VILOYATI YANGIQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-dekabr

734-6-90-Q/24

Yangiqo'rg'on tuman
hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrda "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirilishi hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib taomillarini soddalashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 780-son qarori ijrosi haqida"gi 582-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida.

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, sohadagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali normativ huquqiy hujjatlar sonini maqbullashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 20-aprelda PF-113-son, "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 9-yanvarda PF-8-son farmonlari ijrosini ta'minlash hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrda "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirilishi hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib taomillarini soddalashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 780-son qarori ijrosi haqida"gi 582-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrda "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirilishi hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib taomillarini soddalashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi

780-son qarori ijrosi haqida”gi 582-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

ayrim ruxsat berish tartib-taomillarini belgilashi;

xulosalar berish bo‘yicha tegishli davlat xizmatlarining pasportlarini tasdiqlashi;

xulosalar berish bo‘yicha arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibini belgilashi;

mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan davlat xizmatlarini ko‘rsatishga mas’ul hisoblangan vakolatli organlar bir oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilishini ta’minlashi;

mazkur qaror bilan kiritilayotgan davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur hujjatlarning namunaviy shakllari va blanklarini tasdiqlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Manfaatdor tashkilot va idoralar o‘zlari qabul qilgan meyoriy hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrdagi 780-son qaroriga muvofiqlashtirsin va ushbu qaror talablari asosida ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - iqtisodiyot va moliyabo‘limi boshlig‘i R.Shomirzayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Najmiddinov